KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

SHUKUR XOLMIRZAYEV VA JEK LONDON HIKOYALARIDA “INSON – TABIAT” KONFLIKTINING SYUJET HOSIL QILUVCHI VAZIFASI

Xasanova Umida Odiljon qizi
Namangan davlat universiteti amaliy xorijiy tillar kafedrasi 2-bosqich doktoranti
Email: khasanovaumida8@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-6056-3626
Tel: +998940399395

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adibi Shukur Xolmirzayev va amerikalik yozuvchi Jek London hikoyalarida “inson – tabiat” konfliktining syujet hosil qiluvchi vazifasi qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi”, Londonning “Gulxan” (To Build a Fire), “Hayot qonuni” (The Law of Life) va “Olis yurtda” (In a Far Country) hikoyalari olindi. Tahlilda V. Ya. Propp, Yu. M. Lotman, B. M. Eyxenbaum va E. Poning syujet hamda hikoya poetikasiga oid qarashlariga tayanildi. Ikki adib hikoyalarida syujet “ogohlantirish – unga e’tiborsizlik – halokat” motivlar zanjiri asosida qurilishi aniqlandi: Xolmirzayevda bu zanjir xalq naqli, Londonda esa tajribali kishining qoidasi bilan boshlanadi. Ayni paytda konfliktning badiiy yechimi tubdan farq qilishi ko‘rsatildi: Londonda tabiat insonga befarq qonun sifatida namoyon bo‘lsa, Xolmirzayevda axloqiy mutanosiblik timsoliga aylanadi. Shuningdek, syujet turlari, ko‘zgu kompozitsiyaning vazifasi va hikoya yakunining ma’no markazi sifatidagi o‘rni qiyoslandi. Natijalar o‘zbek va amerika hikoyachiligining tipologik qiyosi uchun nazariy asos bo‘la oladi.

Kalit so’zlar: hikoya poetikasi, syujet, konflikt, “inson – tabiat”, motivlar zanjiri, ko‘zgu kompozitsiya, Shukur Xolmirzayev, Jek London.

THE PLOT-FORMING FUNCTION OF THE "MAN - NATURE" CONFLICT IN THE SHORT STORIES OF SHUKUR KHOLMIRZAYEV AND JACK LONDON

Xasanova Umida Odiljon qizi
First-year doctoral student, Department of Applied Foreign Languages, Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation. The article offers a comparative typological analysis of the plot-forming function of the “man – nature” conflict in the short stories of the Uzbek writer Shukur Kholmirzayev and the American writer Jack London. The material comprises Kholmirzayev’s “The Death of Omon the Hunter” and London’s “To Build a Fire”, “The Law of Life” and “In a Far Country”. The analysis draws on the views of V. Propp, Yu. Lotman, B. Eikhenbaum and E. A. Poe. It is shown that in both writers’ stories the plot is built on the motif chain “warning – disregard – catastrophe”: in Kholmirzayev it begins with a folk saying, in London with the rule of an experienced old-timer. At the same time, the resolution of the conflict differs fundamentally: in London nature appears as an indifferent law, whereas in Kholmirzayev it becomes a symbol of moral proportion. Plot types and mirror composition are also compared.

Keywords: short story poetics, plot, conflict, “man – nature”, motif chain, mirror composition, Shukur Kholmirzayev, Jack London.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n09

Qiyosiy adabiyotshunoslikda turli milliy adabiyotlarga mansub hikoyalarni syujet va kompozitsiya nuqtai nazaridan qiyoslash janr poetikasining umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda milliy-individual o‘ziga xoslikni ham aniqlash imkonini beradi. O‘zbek hikoyachiligining yetuk vakili Shukur Xolmirzayev (1940–2005) ijodida inson va tabiat

munosabati yetakchi leytmotivga aylangani adabiy tanqidda, xususan, U. Normatov tomonidan qayd etilgan [6]. M. Hamidova adib asarlarida voqealar oqimi ko‘pincha oddiy kundalik hayot tasviri bilan boshlanib, asta-sekin ichki ziddiyatlar orqali falsafiy qatlamga o‘tishini ta’kidlaydi [1]. Amerikalik yozuvchi Jek Londonning ikki yuzga yaqin hikoyasi [5] orasida shimol hikoyalari alohida o‘rin tutadi; I. Ye. Lunina bu hikoyalar adibning 1897–1898-yillarda Alyaskada orttirgan tajribasi asosida yaratilganini ko‘rsatadi [11; 150-b.]. Ikki adib hikoyalarida “inson – tabiat” konflikti markaziy o‘rin tutsa-da, uning syujet hosil qiluvchi vazifasi hozirgacha qiyosiy planda maxsus o‘rganilmagan.

Syujet nazariyasida konflikt voqealar rivojini harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Yu. M. Lotman voqeani personajning semantik maydon chegarasini kesib o‘tishi deb ta’riflaydi [10; 282-b.]; V. Ya. Propp esa ertak syujetida “taqiq” va “taqiqni buzish” funksiyalarini ajratgan [12]. Hikoya janri uchun yakunning alohida ahamiyati ham nazariy jihatdan asoslangan: E. Po hikoyada hamma narsa oldindan belgilangan yagona ta’sirga bo‘ysunishi lozimligini yozgan bo‘lsa [7; 298–300-b.], B. M. Eyxenbaum novellada butun og‘irlik yakunga to‘planishini ko‘rsatgan [13; 166–209-b.]. Ushbu qarashlar ikki adib hikoyalarini bir xil o‘lchov bilan qiyoslash imkonini beradi.

Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasida syujet qahramonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi: o‘n uch yoshida otasidan miltiq sovg‘a olgan Omon yovvoyi jonivorlarni otish uchun yaratilgan deb o‘ylaydi, qattiqqo‘lligi tufayli qo‘shnilari undan uzoqlashadi, xotini va yolg‘iz o‘g‘li ham uni tashlab ketadi [9; 278-b.]. Syujet tuguni qadimiy naqlning buzilishi bilan bog‘lanadi: ovchi bir ovda kiyikdan faqat bittasini otishi kerak, aks holda falokat yuz berishi mumkin; Omon esa bu gapni pisand qilmay, ikki kiyik va bir arxarni otadi [9; 279-b.]. Shundan so‘ng voqealar qat’iy sabab-oqibat zanjiri bo‘ylab rivojlanadi: o‘ljani g‘ajirlar yeb bitiradi, Omon muz ustida yiqilib shikastlanadi, shunga qaramay qishda ovga chiqib, qorli qiyalikdan yulg‘unzorga dumalab tushadi. Yechim bir lavhada beriladi: ertasi kuni odamlar g‘ajirlarning qor ustida yotgan “bir kimsa”ni cho‘qib yeyayotganini ko‘radi [9; 280-b.].

Bizningcha, bu hikoyada syujet xalq hikmatining badiiy yoyilmasi sifatida qurilgan: hikoyachi “har kim o‘z kasb-koridan topadi” degan hikmatni eslatib, uning yomon ma’nosi ham borligini qayd etadi [9; 279-b.], voqealar esa shu ma’noni bosqichma-bosqich isbotlaydi. Hikoyada ko‘zgu kompozitsiya ham yaqqol ko‘rinadi: g‘ajirlar avval Omonning o‘ljasini, so‘ng uning o‘zini yeydi – ovchi bilan o‘lja o‘rin almashadi. Qahramonning finalda nomsiz “bir kimsa”ga aylanishi esa umr bo‘yi jonivorlarni nomsiz o‘ljaga aylantirgan odamning axloqiy jazosini ramziy tarzda ifodalaydi. Xolmirzayevning o‘zi ham asar qanday tugashi va qahramonlarning yozuvchi aralashmagan holdagi munosabatlaridan qanday ma’no kelib chiqishi yozuvchi pozitsiyasini belgilashini ta’kidlagan [1].

Jek Londonning “Gulxan” (To Build a Fire, 1908) hikoyasida esa syujet bir kunning bir necha soati ichida kechadi [4]. Ismsiz “odam” Farengeyt bo‘yicha ellik darajadan past sovuqda Klondaykda yolg‘iz yurmaslik kerakligi haqidagi tajribali keksaning qoidasini mensimay, it bilan yolg‘iz yo‘lga chiqadi. Tugun oyoqning ho‘l bo‘lishi bilan bog‘lanadi; shundan keyin syujet go‘yo zinapoya bo‘ylab pastga tushadi: birinchi gulxanni qoraqarag‘ay shoxlaridan qulagan qor o‘chiradi, ikkinchi urinish uvishgan barmoqlar tufayli barbod bo‘ladi, qahramon vahimaga tushib halok bo‘ladi, it esa lager tomon yo‘l oladi. Hikoyachi qahramonning asosiy kamchiligi tasavvurdan mahrumligi ekanini ochiq aytadi. Muhimi, London 1902-yilda o‘smirlar uchun

yozgan dastlabki variantda qahramon Tom Vinsentni omon qoldirib, yolg‘iz yurmaslik saboqini bergan edi [8]; 1908-yilgi variantda esa bu tarbiyaviy yechimdan voz kechadi.

Fikrimizcha, bu ikki variantning qiyosi syujet funksiyasi muallif konsepsiyasiga bevosita bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi: bir xil fabula dastlab tarbiyaviy hikoyaga, keyin esa tabiatning befarq qonuni haqidagi fojiaga aylangan. Hal qiluvchi o‘zgarish aynan yakunda yuz bergan. Bu holat Xolmirzayevning asar qanday tugashi yozuvchi pozitsiyasini belgilashi haqidagi qarashi [1] bilan hamohang: ikki adib uchun ham yakun syujetning ma’no markazi bo‘lib xizmat qiladi.

“Hayot qonuni” (The Law of Life, 1901) hikoyasida konflikt yanada falsafiy tus oladi [3]: qabiladoshlari ko‘chib ketayotganda kichik gulxan bilan yolg‘iz qoldirilgan keksa Koskush yoshligida bo‘rilar qurshab olgan qari bo‘g‘uning o‘limini eslaydi, final esa shu manzarani uning o‘z taqdirida takrorlaydi. “Olis yurtda” (In a Far Country, 1899) hikoyasi esa olis yurtga yo‘l olgan odam o‘zi o‘rgangan ko‘p narsani unutishga va yangi yashash odatlarini o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishi lozimligi haqidagi muallif aforizmi bilan boshlanadi, keyingi voqealar esa bu qoidaga amal qilmagan ikki sherikning bir-birini o‘ldirishi bilan yakunlanadi [2]. I. Ye. Lunina hindularning hayot qonuni keksa hinduning idroki orqali berilishini, shimol ovoziga quloq solmay sivilizatsiya qonunlariga ergashganlar esa halokatga mahkum ekanini ta’kidlaydi [11; 152-b.].

Qiyosiy tahlil ikki adib hikoyalarida muhim tipologik yaqinlikni ko‘rsatadi. Har ikkala holatda ham syujet “ogohlantirish – unga e’tiborsizlik – halokat” motivlar zanjiri asosida quriladi; bu zanjir Propp ta’riflagan “taqiq” va “taqiqni buzish” funksiyalarining realistik ko‘rinishidir. Ogohlantirish gnomik formula shaklida beriladi: Xolmirzayevda xalq naqli, Londonda tajribali keksaning qoidasi yoki muallif aforizmi. Ikki adib hikoyalarida ko‘zgu (halqasimon) tuzilish ham mavjud: Omonning o‘limi u otgan jonivorlar taqdirini, Koskushning o‘limi esa bo‘g‘uning taqdirini takrorlaydi.

Ammo konfliktning badiiy yechimi tubdan farq qiladi. Londonda tabiat insonga befarq: “Gulxan”da qahramonni tabiat jazolamaydi, balki uni sezmaydi ham, yangi muvozanat esa it va lager hayoti hisobiga tiklanadi; Koskush ham tabiat qonuniga sokin rozilik bilan bo‘ysunadi. Xolmirzayevda esa tabiat axloqiy mutanosiblik timsoli: Omonning halokati buzilgan me’yor uchun to‘lanadigan bahodir. Hikoyachining bahosi ham farqlanadi: Xolmirzayev hikoyachisi qahramonni ochiq qoralab, uni “ikki oyoqli maxluq” deb ataydi [9; 280-b.], London hikoyachisi esa sovuqqon kuzatuvchi ohangida qahramonning faqat tasavvurdan mahrumligini qayd etadi. Syujet turi ham turlicha: London hikoyasi bitta vaziyat atrofida jamlangan konsentrik syujetga, Xolmirzayev hikoyasi esa butun umrni qamrab olgan sabab-oqibatli xronikaga ega.

Lotman modeli nuqtai nazaridan ham farq yaqqol ko‘rinadi [10; 282-b.]. “Gulxan”da chegara bir necha qatlamda namoyon bo‘ladi: tajriba va tajribasizlik, lager va yo‘l, issiqlik va sovuq, nihoyat, hayot va o‘lim. Odam bu chegaralarni birin-ketin kesib o‘tadi, it esa instinkti chegarasidan chiqmaydi va shu tufayli omon qoladi. “Omon ovchining o‘limi”da esa chegara axloqiy xarakterga ega: naql belgilagan me’yor buzilgach, qahramon avval insonlar dunyosidan, so‘ng tabiat himoyasidan ham mahrum bo‘ladi. Demak, Londonda chegara tabiiy-fiziologik, Xolmirzayevda esa axloqiy-ma’naviy mazmun kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, “inson – tabiat” konflikti ikki adib hikoyalarida syujet hosil qiluvchi asosiy omil bo‘lib, ularning syujet qurilishida bir xil motivlar zanjiri va ko‘zgu tuzilishi kuzatiladi. Biroq bu tipologik yaqinlik bevosita ta’sir natijasi emas: London shimolning yangi va shafqatsiz tajribasidan, Xolmirzayev esa ajdodlar xotirasi va xalq hikmatidan kelib chiqadi.

Natijada bir xil syujet modeli Londonda tabiatning befarq qonuni haqidagi naturalistik fojiaga, Xolmirzayevda esa axloqiy saboqqa aylanadi. Bu xulosa ikki adib hikoyalarining kompozitsion vositalarini, xususan, yakun shakllari va hikoya qiluvchi turini keyingi tadqiqotlarda qiyosiy o‘rganish uchun asos bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Hamidova M. O. Shukur Xolmirzayev nasrining poetikasi // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2025. – № 10.
2. London J. In a Far Country // London J. The Son of the Wolf: Tales of the Far North. – Boston; New York: Houghton, Mifflin and Co., 1900.
3. London J. The Law of Life // London J. Children of the Frost. – New York: Macmillan, 1902.
4. London J. To Build a Fire // London J. Lost Face. – New York: Macmillan, 1910.
5. McClintock J. I. Jack London’s Short Stories: PhD thesis. – East Lansing: Michigan State University, 1968.
6. Nomonova O. Shukur Xolmirzayev mohir hikoyanavis // Modern Science and Research. – 2023. – Vol. 2, Issue 4. – DOI: 10.5281/zenodo.7794221.
7. Poe E. A. [Review of] Twice-Told Tales. By Nathaniel Hawthorne // Graham’s Magazine. – 1842. – Vol. 20, May. – P. 298–300.
8. The Portable Jack London / ed. by E. Labor. – New York: Penguin Books, 1994.
9. Qo‘ziyeva Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyasidagi ovchi obrazi // Science and Innovation. – 2022. – Vol. 1, Issue 5. – B. 277–280.
10. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.
11. Лунина И. Е. «Северные рассказы» Дж. Лондона в контексте осмысления проблемы межрасовых отношений // Вестник Московского государственного областного университета (электронный журнал). – 2011. – № 3. – С. 150–155.
12. Пропп В. Я. Морфология сказки. – 2-е изд. – М.: Наука, 1969. – 168 с.
13. Эйхенбаум Б. М. О. Генри и теория новеллы // Эйхенбаум Б. М. Литература: Теория. Критика. Полемика. – Л.: Прибой, 1927. – С. 166–209.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.